

**MAMLAKATIMIZDA TASHQI SAVDONI ERKINLASHTIRISH VA TO'LOV BALANSI  
BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI**

**Giyazova B.B**

*Buxoro davlat Universiteti  
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası  
o'qituvchisi  
"Iqtisodiyot va turizm" fakulteti  
3-2 Iqt-20 guruh talabasi*

**Hamidov Fozilbek**

**Annotatsiya** Ushbu maqolada "To'lov balansi" haqida malumotlar uning nima ekanligi hozirgi kunda mamlakatimizda bu yo'nalish qay darajada olib borilayotganligi va boshqa chet davlatlarining to'lov balansi qanday ekanligi, to'lov balansi mamlakatda qay darajada ahamiyatli ekanligi, to'lov balansini yaxshilash uchun nimalar qilish zarurligi to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** *To'lov balansi, eksport, import, tashqi savdo, kapital aylanmasi, investitsiya, savdo balansi, kapital hisobi, xizmatlar, YaIM,*

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlari va mamlakatimizni Evro Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lishi hamda umumjahon savdo tashkilotlari bilan olib borayotgan aloqalari bevosita amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatiga bog'liq. Chunki pul-kredit tizimi mamlakat iqtisodiyotini mablag' bilan ta'minlovchi va iqtisodiy islohotlarning samarasini belgilovchi infratuzilma bo'lib hisoblanadi. Pul – bu umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi. Pul ayirboshlash, to'lov, qiymatni o'lchash, boylikni to'plash vositasi funktsiyalarini bajaradigan noyob tovardir. Hozirgi iqtisodiyotda pul muomalasi amalda tovarlarning hamma turlari muomalasining o'zgarmas sharti hisoblanadi. Pul tufayli tovarlarni qiyoslash, ayirboshlashda zarur bo'ladigan qiymatning yagona mezoniga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

To'lov balansi har bir mamlakatda mavjud narsa hisoblanadi. To'lov balansi — mamlakat tashqi iqtisodiy operatsiyalarining hisob varag'i, ya'ni bu davlatning tovarlar, xizmatlar, kapitallar olib kirish hamda olib chiqish ko'rsatkichlarining nisbati ko'rinishidagi barcha xalqaro aloqalari majmuining puldagi ifodasi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi,

chetdan olingan (import) tovarlar va xizmatlar haqi, xorij investitsiyalari, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarining chet elga pul o'tkazmalari va boshqalar kiradi.

To'lov balansi joriy va kapital hisobini ham o'z ichiga oladi. Joriy hisob mamlakatning tovarlar va xizmatlar sof savdosini, uning transchegaraviy investitsiyalar bo'yicha sof daromadini va sof transfert to'lovlarini o'z ichiga oladi. Kapital hisobi mamlakatning moliyaviy vositalari va markaziy bank zaxiralari bo'yicha operatsiyalaridan iborat. To'lov balansida qayd etilgan barcha operatsiyalar summasi nolga teng bo'lishi kerak; ammo valyuta kursining o'zgarishi va buxgalteriya hisobidagi farqlar amalda bunga to'sqinlik qilishi mumkin. To'lov balansi operatsiyalarni ikkita schyotga ajratadi: joriy hisob va kapital hisobi. Ba'zan kapital hisobi moliyaviy hisob deb ataladi, alohida, odatda juda kichik kapital hisobi alohida ko'rsatilgan. Joriy hisob tovarlar, xizmatlar, investitsiya daromadlari va joriy transfertlarni o'z ichiga oladi. Milliy va xalqaro iqtisodiy siyosatni shakllantirishda to'lov balansi va xalqaro investitsiya pozitsiyasi haqidagi ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. To'lov balansi ma'lumotlarining ayrim jihatlari, masalan, to'lov balansidagi nomutanosiblik va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar davlat siyosatchilari hal qilishga intilayotgan asosiy masalalardir. Mamlakatning to'lov balansi joriy va kapital hisoblarini majburiy ravishda nolga tenglashtirgan bo'lsada, turli mamlakatlarning joriy hisoblari o'rtasida nomutanosibliklar paydo bo'lishi mumkin va paydo bo'ladi.

Dunyodagi barcha davlatlarning iqtisodiyotida ham to'lov balansi mavjud. To'lov balansi davlatlarning rivojlanganlik darajasi, ishlab chiqarish salohiyatiga qarab tulicha bo'ladi. Shulardan Buyuk Britaniyaning to'lov balansini tahlil qilsak. 2022-yilning uchinchi choragida Buyuk Britaniyaning joriy hisobi 15,9 milliard funt sterlingga yoki yalpi ichki mahsulotning (YalM) 2,8 foiziga kamaydi.

2022 yilda umuman olganda - Buyuk Britaniyaning joriy hisobi taqchilligi joriy bozor narxlarida YalMning 4% ga yaqin edi. Buyuk Britaniya so'nggi yillarda doimiy joriy hisob taqchilligiga ega. Buyuk Britaniyada tovarlar savdosida defitsit mavjud. Biroq, 2011-yildan boshlab joriy hisob taqchilligi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar daromadlarining pasayishi tufayli oshdi. Investitsion daromadlar 2011-yilda YalMning 3,3% profitsitidan 2015-yilda 0,2% taqchillikka kamaydi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tushumining pasayishiga 2011-yildan beri jahon xomashyosi narxlarining pasayishi sabab bo'ldi. Buyuk Britaniya nisbatan yuqori foizga ega neft sanoatidagi aktivlarning kamayishi, shuning uchun neft narxining tushishi neft bilan bog'liq bo'lgan sanoatning daromadlarini kamaytirdi. Qimmatbaho metallarni

hisobga olmaganda, Buyuk Britaniyaning joriy hisobining asosiy taqchilligi oldingi chorakdagi 26,1 milliard funt sterlingdan 2021-yil 4-chorakda (oktabrdan dekabrgacha) 11,4 milliard funt sterlingga yoki yalpi ichki mahsulotning (YalM) 1,9 foiziga qisqardi. 2021 yilning 4-choragida jami savdo taqchilligi, qimmatbaho metallar bundan mustasno, 10,3 milliard funt sterlinggacha qisqardi, chunki xizmatlar eksporti importga qaraganda kuchliroq o'sdi. Birlamchi daromad hisobi 4,7 milliard funt sterling yoki YalMning 0,8 foizini tashkil etdi, bu 2011 yil 4 choragidan beri birinchi marta profitsit (0,4 milliard funt sterling) qayd etildi. 2023-yilning 4-choragida sof moliyaviy oqimlar Buyuk Britaniyaga 13,1 milliard funt sterling miqdorida sof tushum bilan oshdi, chunki investorlar qimmatli qog'ozlar aktivlarini sotdi va Buyuk Britaniya davlat obligatsiyalarini norezident investorlarga chiqarish ko'paydi. Buyuk Britaniyaning sof xalqaro investitsiya majburiyatlari pozitsiyasi 741,6 milliard funt sterlinggacha qisqardi.

Iqtisodiyotda mamlakatning joriy hisobi tovarlar va xizmatlarning eksporti va importi va kapitalning xalqaro o'tkazmalari qiymatini qayd etadi. U to'lov balansining uchta tarkibiy qismidan biri bo'lib, qolganlari kapital hisobi va moliyaviy hisobdir. Joriy hisob mamlakatning chet eldagi daromadlari va xarajatlarini o'lchaydi va u ma'lum bir davrda sodir bo'lgan savdo balansi, sof birlamchi daromad yoki omil daromadi (chet el investitsiyalari bo'yicha tushumdan chet ellik investorlarga to'langan to'lovlarni olib tashlagan holda) va sof bir tomonlama transfertlardan iborat. Joriy operatsiyalar balansi mamlakat tashqi savdosining ikkita asosiy ko'rsatkichlaridan biridir (ikkinchisi - kapitalning sof chiqib ketishi). Joriy hisobning profitsiti mamlakatning sof xorijiy aktivlari qiymati (ya'ni, aktivlar passivlari kamaygan holda) ko'rib chiqilayotgan davrda o'sganligini va joriy hisob taqchilligi uning qisqarganligini ko'rsatadi. Hisoblashda davlat to'lovlari ham, xususiy to'lovlar ham hisobga olinadi. U joriy hisob deb ataladi, chunki tovarlar va xizmatlar odatda joriy davrda iste'mol qilinadi. Joriy hisob iqtisodiyot salomatligining muhim ko'rsatkichidir. U savdo balansi (tovar va xizmatlar eksporti minus import), xorijdan olingan sof daromad va sof joriy transfertlar yig'indisi sifatida aniqlanadi. Joriy hisobning ijobiy qoldig'i mamlakatning dunyoning qolgan qismiga sof qarz beruvchi ekanligini ko'rsatadi, salbiy joriy hisob balansi esa butun dunyodan sof qarz oluchi ekanligini ko'rsatadi. Joriy hisobning profitsiti mamlakatning sof xorijiy aktivlarini profitsit miqdoriga oshiradi va joriy hisob taqchilligi uni shu miqdorga kamaytiradi.

2023-yil davomida O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi ko'rsatkichlarining shakllanishiga dunyoda koronakrizis boshlanishi bilan

bog'liq ichki hamda tashqi bozor holatidagi o'zgarishlar, tashqi savdo aylanmasining pasayishi, global biznes faoliyatining sekinlashishi va moliyaviy xatarlarning ortishi kabi omillar o'z ta'sirini o'tkazdi. Yuqorida ta'kidlangan omillar ta'sirida joriy operatsiyalar hisobi 3,1 mlrd. dollar (2019-yilda 3,4 mlrd. dollar) hajmidagi defitsit bilan shakllandi. Shuningdek, savdo balansi (tovarlar va xizmatlar) va birlamchi daromadlarning manfiy savdosi (8,2 mlrd. dollar) ikkilamchi daromadlarning ijobiy savdosi (5,1 mlrd. dollar) hisobiga qisman qoplandi. Moliyaviy hisobning manfiy savdosi 4 mlrd. dollarni tashkil etib, bu ko'rsatkich rezidentlarning moliyaviy majburiyatlari ortishi (11,0 mlrd. dollar) hamda ular tomonidan aktivlarning qabul qilinishi (7,0 mlrd. dollar) oqibatida hosil bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining kreditlar va qarzar ko'rinishidagi sof tashqi qarzi 20 foizga oshib, 2019 yilga nisbatan 7,1 mlrd. dollarga ko'paydi hamda 2022-yilning 1-yanvar holatiga 30,0 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, qarzlarning jalb qilinishi asosan davlat va bank sektorlari hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, davlat va bank sektorlari tomonidan 1,4 mlrd. dollarga teng portfel investitsiyalar xalqaro bozorlarida baholangan qarz instrumentlarini (yevrobondlarni) joylashtirish orqali jalb qilindi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2022 yil I chorak yakuni bo'yicha dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobi defisiti 2,5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, savdo balansi (tovarlar va xizmatlar) va birlamchi daromadlarning manfiy savdosi (3,7 mlrd. dollar) ikkilamchi daromadlarning ijobiy savdosi (1,2 mlrd. dollar) hisobiga qisman qoplandi. Tovarlar eksporti (nomonetar oltin hisobga olinmagan holda) o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23 foizga oshib 1,9 mlrd. dollarni tashkil etdi. Birlamchi daromadlarning savdosi 305 mln. dollar miqdorida manfiy bo'lib shakllandi. Bunda, pandemiya bilan bog'liq cheklovlar qisqa muddatli ishchilarning daromadlari kamayishiga olib kelgan bo'lsa, xarajatlarning o'sishi jalb qilingan qarzlarga hisoblangan foizlar va to'g'ridan-to'g'ri investorlar daromadlari hisobiga kuzatilmoqda. Ikkilamchi daromadlarning ijobiy savdosi 1,2 mlrd. dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20 foizga o'sishi kuzatildi.

*1-jadval<sup>92</sup>*

**O'zbekiston Respublikasi 2023-yil jami hisobda eksport va import hajmi**

|   | Foiz | Mahsulot nomi           | Import (mln \$) | Eksport (mln \$) |
|---|------|-------------------------|-----------------|------------------|
| 1 | 12%  | Oziq-Ovqat mahsulotlari | 597             | 254.1            |
| 2 | 15%  | Kimyoviy mahsulotlar    | 786.8           | 246.6            |

<sup>92</sup> <https://stat.uz/>

|   |     |                               |        |       |
|---|-----|-------------------------------|--------|-------|
| 3 | 5%  | Energiya va neft mahsulotlari | 261.6  | 91.5  |
| 4 | 11% | Metallar va metal buyumlar    | 449.5  | 331.8 |
| 5 | 25% | Mashina va uskunalar          | 1625.3 | 158   |
| 6 | 125 | Xizmatlar                     | 361.9  | 467.1 |
| 7 | 21% | Boshqa tovarlar               | 624.8  | 849.1 |

2-jadval<sup>93</sup>

2023- yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi tarkibida yuqori ulushga ega ular quidagi yo`nalishlarni va raqamlarni ko`rsatadi va jami eksport hajmi 7.1 mld \$ ni tashkil etmoqda.

|   | Mahsulot va xizmat nomi    | Eksport (mln \$) |
|---|----------------------------|------------------|
| 1 | Sanoat mahsulotlari        | 1,5 mlrd         |
| 2 | Xizmatlar                  | 837 mln          |
| 3 | Oziq-ovqat mahsulotlari    | 394 mln          |
| 4 | Kimyoviy mahsulotlar       | 357 mln          |
| 5 | Turli tayyor mahsulotlar   | 306 mln          |
| 6 | Mineral yoqilg'ilar        | 293 mln          |
| 7 | Mashina va asbob-uskunalar | 228 mln          |
| 8 | Nooziq-ovqat mahsulotlari  | 135 mln          |

Ushbu mavzuni xulosa qilib, to'lov balansi mamlakat uchun juda muhim omil ekanligi uning iqtisodiyotining qay darajada olib borilayotganligi yaqqol namoyon bo`lib turibdi. To'lov balansini o`rganish jarayonida uning bo`limlari quidagilardan iborat ekanligini bilib olamiz:

- savdo balansi
- xizmatlar balansi
- o`tkazmalar balansi
- kapital harakati balansi

Shu bo`limlar orqali to'lov balansining turli xil tarmoqlarini o`rganish mumkin bo`ladi. Mamlakatning ma'lum vaqtdagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan, tashqi savdo , kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayirboshlash va valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari pirovardida xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi. Shuning uchun ham to'lov balansini bir tomondan, chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomondan

<sup>93</sup> <https://stat.uz/>

esa, chetga chiqariladigan barcha to'lovlar ko'rsatilgan hujjatdir deb qarash mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.

2. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.

3. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.

4. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).

5. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Роль маркетинга в сфере агропромышленного комплекса Узбекистана. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1616-1620).

6. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).

7. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. Miasto Przyszłości, 84-86.

8. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).